

QORAKO'L QO'YLARINING QON TARKIBIDAGI BIOLOGIK FAOL MODDALAR VA KO'PAYISH FIZALOGIYASI BILAN BOG'LIQLIGI

Aminova Shoira Furqat qizi, *Samarqand davlat veterinariya meditsinasi Chorvachilik va Biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali 2-bosqich magistrant.*

Xolbutayev Ilyos Rustam o'g'li, *Samarqand davlat veterinariya meditsinasi Chorvachilik va Biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali 2-bosqich magistrant.*

Yangiboyev Abdumalik Eshmurodovich, *Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali, katta o'qituvchi*

Annotatsiya: Tadqiqot natijalari tahlillariga ko'ra qon tarkibidagi biologik faol moddalarning sur rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarning biologik xususiyatlariga ta'siri o'rganilganda organizmda biologik faol moddalar nisbatan ko'p hayvonlarning hayotchanligi va qayta urchish intensivligi yuqori darajada ekanligi kuzatildi.

Kalit so'zlar: ferment, jinsiy faollik, oqsil, uglevodlar, intensivlik, korrelyatsiya, albumin, globulin, leykotsit, eritrotsit, gemoglobin

Annotation: According to the analysis of the results of the research, when studying the effect of biologically active substances in the blood on the biological characteristics of black-colored black sheep, it was observed that the vitality of animals with a relatively large number of biologically active substances in the body and the intensity of reproduction is at a high level.

Keywords: enzyme, sexual activity, protein, carbohydrates, intensity, correlation, albumin, globulin, leukocyte, erythrocyte, hemoglobin.

KIRISH. Organizmda kaliy kationlari osmatik bosimni mutadillashtiradi, ishqor, kislota tengligini va moddalar almashinish, hazmlanish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlanganki, hayvonlarning jinsiy faollik davrlarida qon tarkibidagi kaliy miqdorining sezilarli darajada o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi aniqlangan. Olib borilgan tadqiqotlarda qon tarkibidagi kaliy miqdorining qorako'l qo'ylari qayta urchish xususiyatlari bilan bog'liqlik belgilari kuzatilgan.

Organizmada sodir bo'ladigan barcha jarayonlarda kaliy kationlari ishtirok etadi. Ular qonning osmotik bosimini mo'tadillashtiradi, kislotaishqor tengligini, nafas

olish va ovqat hazm qilish va boshqa jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Kaliyning o'ziga xos xususiyati shundaki, u radioaktiv xususiyatga ega, yurak muskullarining faolliligini ta'minlaydi, yurak urish ritmini boshqaradi, ichki organlar qon tomirlarni kengaytiradi. Qon plazmasidagi kaliy miqdorining kamayishi natijasida yurak urish faoliyati buziladi, uglevodlardan foydalanish buziladi, oqsil sintezi susayadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Uglevod almashinuvida kaliyning ahamiyati juda katta, bundan tashqari, shu narsa aniqlanganki, agarda kaliy bilan organizm to'liq ta'minlanmasa, oqsil molekulalarining RNK dan chiqishi qiyinlashadi. Organizmda kaliy miqdorining 2 miqdorda bo'lishi aniqlanganligi sababli (yuqori va past darajada) ularning turli biologik ahamiyatlari aniqlangan; kaliy miqdori ko'p bo'lgan qo'ylar suvni kam iste'mol qilishlari va issiqlikka chidamli bo'lishi bilan kaliy miqdori kam bo'lgan hayvonlardan farq qiladi. Ko'pchilik ilmiy tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra kaliy miqdori bilan qo'ylar serpushtligi orasida uzviy korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Aripov U.X., Valiev R.G. larning ta'kidlashicha, turli zavod tipiga mansub qorako'l qo'ylari, agarda ular turlicha iqlim sharoitlarida urchitilayotgan bo'lsa, qon tarkibidagi kaliy miqdori bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Bu esa ularning tashqi muhit sharoitiga moslashishidan dalolat beradi. Qonda kaliy miqdorini qorako'l qo'ylarning kuyga kelish intensivligi bilan bog'liqligi ularning qayta urchish xususiyatlariga bog'liq. Bunda ularning ushbu xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash muhim bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Qorako'l qo'ylarining qayta urchish xususiyatlarini biz tajribalarimizda ularning qochirish mavsumida kuyga kelish intensivligiga qarab aniqladik. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qon tarkibidagi kaliy miqdori turlicha bo'lgan hayvonlar o'zlarining biologik ko'rsatkichlari bo'yicha, ya'ni kuyga kelish intensivligi bo'yicha bir-biridan farq qilishadi. Qoni tarkibida kaliy miqdori ko'p hayvonlar kuyga ancha ertaroq kelishadi va ularni urug'lantirish odatda bir jinsiy siklning o'zidayoq yakunlanadi. Bunday holat, seleksionerlarga qochirish mavsumini boshqarish imkonini tug'dirib, qon tarkibida kaliy miqdori ko'p hayvonlar qochirish mavsumini erta va qisqa muddatlarda tugatish imkonini beruvchi hayvon guruhlarini yaratish potensial manbai hisoblanadi. Bu yerda, qon tarkibida kaliy miqdori turlicha bo'lgan ona qo'ylarning urug'lanish darajalarini o'rganish katta qiziqish uyg'otgan. Tajribalar natijasi shuni ko'rsatdiki, qon tarkibida kaliy miqdori turlicha bo'lgan sovliqlarning urug'lanish ko'rsatkichlari turlicha bo'ldi. Ya'ni, plyus variantidagi sovliqlarning urug'lanish darajasi o'rta variantga nisbatan 12,2 % ga, minus variantidan esa 14,5 %

ga yuqori ekanligi aniqlangan. Qon tarkibidagi kaliy miqdori ma'lum darajada qorako'l qo'ylarining qayta urchish funksiyalariga ta'sir o'tkazadi. Podaning takrorlanishi uchun asos qorako'l qo'ylari sonining ko'payishi, qayta o'rchish xususiyatlari va tashqi muhit omillariga bog'liq.

Tadqiqot natijalariga ko'ra qo'ylarning qayta o'rchish xususiyatlari asosan qochirim kompaniyasi davrida qondagi kaliy konsentratsiya miqdoriga qarab taqqoslash usullarida aniqladik. Kaliy miqdoriga qarab qorako'l qo'ylarini urug'lanish intensivligi U.X. Aripov, R.G. Valiev, F. Badalbaevalar tadqiqotlarida shuvoq – efemerli cho'lda urchitilayotgan hayvonlar qoni tarkibidagi kaliy miqdori tog' oldi yarim cho'l mintaqasida urchitilayotgan qo'ylarnikiga nisbatan ko'proq bo'lishi aniqlangan. Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlanganki, turli hayvonlarning jinsiy faollik davrlarida qon tarkibidagi kaliy miqdorining sezilarli darajada o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi (yirik shoxli hayvonlarda) aniqlangan Biz olib borgan tadqiqotlarda qon tarkibidagi kaliy miqdorining qorako'l qo'ylari qayta urchish xususiyatlari bilan bog'liqlik darajasi o'rganildi. Tadqiqot manbalari sifatida yoshi va teri mahsuldorligi bo'yicha bir xil bo'lgan toza zotli qorako'l qo'ylari olindi. Qon tarkibidagi kaliy miqdorini belgilovchi kriteriy sifatida hayvonlar uch alohida guruhlariga ajratildi: “minus” varianti - kaliy miqdori 730 mkg/ml. gacha, “o'rta” variant 730 mkg/ml.dan – 850 mkg/ml.gacha, + “plyus” varianti - kaliy miqdori 850 mkg /ml dan ko'p.

Qon tarkibidagi biologik ko'rsatkichlardan kaliy miqdori har xil miqdordagi qo'ylardan kuyga kelish intensivligi ahamiyatli farq qiladi. Kaliy miqdori ko'p qo'ylar ertaroq kuyga kelishi va ularni urug'lantirish diyarli bir jinsiy siklda amalga oshadi. Bunday holatlar seleksionerlar o'rtasida qochirim mavsumini yuqori darajada o'tkazishga imkon beradi. Kaliy miqdori yuqori darajada bo'lgan qorako'l qo'ylari qochirish mavsumi qisqa muddatlarda amalga oshiriladi

Organizmida kaliy moddalar almashinuvi, osmatik bosimning miyorlashishi, organizmdagi suyuqliklarning muhit ko'rsatkichlari, fermentlar faolligini oshirishda, organizmda nerv tolalarining qo'zg'alishida muhim vazifalarni bajaradi. Tajribalar tahlillariga asoslanib qorako'l qo'ylarining qoni tarkibidagi bioximiyaviy va gemotologik tekshirishlar asosida biomahsuldorlik xususiyatlari aniqlandi. Organizmda kaliy miqdorlariga qarab umumiy oqsil miqdorlari taqqoslanganda plyus variant qo'ylarda yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki organizmdagi kaliy miqdori umuiy oqsil miqdorlari bilan o'z aro bog'liqligi aniqlandi.

XULOSA

Eritrotsitlarning miqdoriy ko'rsatkichlari plyus variant qo'ylarning qoni tarkibida qisman yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi. Albumin, globulin, leykotsitlar va gemoglobinlar o'rtasida diyarli o'zgarishlar yo'qligi aniqlandi. Mahsuldor hayvonlarni seleksion tizimlarini yaratishda organizmning fiziologik, bioximik va gemotologik holatlarni hisobga olgan holda seleksiya ishlari o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Xulosa qilib shuni takidlash lozimki qorako'l qo'ylari qoni tarkibidagi biologik faol moddalarning albumin, globulin, leykotsitlar va gemoglobinlar miqdori mahsuldorlik belgilari bilan bog'liqliklar borligi kuzatilmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupov S.Yu., Gaziev A., Boltaev A., Mamatov B., Nazarova M. Qorako'l qo'ylarxususiyatlarining o'zaro bog'liqligi.//«Cho'l-yaylov chorvachiligi va ozuqa yetishtirish muammolari» QChEITining 85 yilligiga bag'ishlangan halqaro il.-amal. konf. materiallari. Samarqand. 2015. 222-225.
2. Gaziev A. Qorako'l zotining irsiy salohiyatidan unumli foydalanish. //«Cho'lyaylov chorvachiligining ekologik asoslangan texnologiyalari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2009, 53-58 b.